



**IJTIMOYIY-GUMANITAR VA  
TEXNIK BILIMLAR EVOLYUTSIYASI:  
QADIMGI DAVRDAN ZAMONAVIY ILMIIY  
TIZIMGACHA MAVZUSIDAGI**  
Respublika-amaliy konferensiya materiallari

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**IPAK YO‘LI INNOVATSIYALAR UNIVERSIETI**

**IJTIMOIIY- GUMANITAR VA TEXNIK BILIMLAR  
EVOLUTSIYASI: QADIMGI DAVRDAN ZAMONAVIY ILMIY  
TIZIMGACHA MAVZUSIDAGI**

*Respublika-amaliy konferensiya materiallari to‘plami*

*Olmaliq-2025*

Ushbu to'plamga Oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 19-sentabrdagi 02/438-sonli xati asosida Ipak yo'li innovatsiyalar universitetida 2025-yil dekabr oyida "Ijtimoiy-gumanitar va texnik bilimlar evolyusiyasi: qadimgi davrdan zamonaviy ilmiy tizimgacha" mavzusida o'tkazilgan Respublika amaliy konferensiya materiallari kiritilgan.

**Mas'ul muharrir:**

*texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Q.R. Qodirov*

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) E.B.Sattorov*

*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) A.A.Xayitov*

*Filologiya fanlari doktori T.O'.Mirzakulov*

**Taqrizchilar:**

*falsafa fanlari doktori, professor*

***Qoraboev Usmon Xosilovich***

*Psixologiya fanlari nomzodi, professor*

***Shomurotova Nigora Nabijonovna***

*Pedagogika fanlari doktori, professor*

***Pardayev Obid Raximboboyevich***

To'plam Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

## **So‘z boshi**

Insoniyat taraqqiyoti tarixi bilimlarning uzluksiz rivoji va takomillashuvi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda ijtimoiy-gumanitar va texnik bilimlar alohida o‘rin egallaydi. Qadimgi davrlardan boshlab inson tabiat hodisalarini anglash, jamiyat hayotini tashkil etish hamda kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bilimlarni shakllantirib kelgan. Dastlab og‘zaki an‘analar, mifologik qarashlar va empirik tajribalar asosida vujudga kelgan bilimlar keyinchalik falsafiy tafakkur, mantiqiy mushohada va ilmiy kuzatuvlar orqali tizimli ilmiy bilimlarga aylandi.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlar inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni, ijtimoiy tuzum, madaniyat, axloq, huquq va ma‘naviy qadriyatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, texnik bilimlar moddiy ishlab chiqarish, mehnat qurollari, muhandislik faoliyati va texnologik jarayonlarning rivojini ta‘minlab kelgan. Tarixiy taraqqiyot shuni ko‘rsatadiki, bu ikki yo‘nalish bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro uyg‘unlik va ta‘sirida rivojlangan. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida texnik yutuqlar ijtimoiy munosabatlarga ta‘sir ko‘rsatgan, ijtimoiy ehtiyojlar esa texnik yangiliklarning yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan.

Qadimgi Sharq, Misr, Mesopotamiya, Hind va Xitoy sivilizatsiyalarida astronomiya, matematika, me‘morchilik va irrigatsiya tizimlarining rivoji ijtimoiy boshqaruv va madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Antik davrda esa falsafa, mantiq va tabiiy fanlar bir butun ilmiy tafakkur tizimi sifatida shakllanib, ilmiy bilimlarning nazariy asoslari yaratildi. Aynan shu davrda ijtimoiy-gumanitar va texnik bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy tafakkurning muhim tamoyiliga aylandi.

O‘rta asrlarda Sharq va G‘arb ilmiy maktablari faoliyatida fanlararo integratsiya yanada kuchaydi. Markaziy Osiyo allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy merosda falsafa, tibbiyot, astronomiya, matematika va muhandislik bilimlari uyg‘un holda rivojlanganini ko‘rish mumkin. Ushbu davr ilm-fani nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy ahamiyati bilan ham jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Ilmiy bilimlar davlat boshqaruvi, qurilish, savdo va hunarmandchilik sohalarida keng qo‘llanilgan.

Yangi davrga kelib ilm-fanning rivoji tub burilish yasadi. Ilmiy inqilob va sanoat taraqqiyoti natijasida texnik bilimlar tez sur‘atlar bilan rivojlanib, ishlab chiqarish jarayonlari ilmiy asosda tashkil etila boshlandi. Shu bilan birga, ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni tahlil qilish, inson omilining ahamiyatini ochib berish vazifasini bajardi. Bu davrda ilmiy bilimlarning ixtisoslashuvi kuchaygan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro aloqadorligi saqlanib qoldi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida ilm-fan taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya tizimlari, sun‘iy intellekt va innovatsion texnologiyalar ijtimoiy-gumanitar va texnik bilimlar o‘rtasidagi chegaralarni yanada yaqinlashtirdi. Fanlararo tadqiqotlar zamonaviy ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Jamiyat rivojini faqat texnik yoki faqat ijtimoiy nuqtai nazardan izohlash yetarli bo‘lmay, kompleks va tizimli yondashuv zarurati yuzaga keldi.

Mazkur konferensiya to‘plamida taqdim etilgan ilmiy maqolalar ijtimoiy-gumanitar va texnik bilimlar evolyusiyasini tarixiy izchillikda tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berishga qaratilgan. To‘plamda fanlararo yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar, nazariy tahlillar va amaliy xulosalar jamlangan bo‘lib, ular ilmiy muloqotni rivojlantirish va yangi ilmiy g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu konferensiya materiallari olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar hamda sohaga qiziquvchi mutaxassislar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining dolzarb muammolarini yoritish va kelajak ilmiy izlanishlar uchun mustahkam asos yaratishga xizmat qiladi.

**Qodirov Qahramon Rahmonovich**  
**Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti rektori**

ishlash va o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay vosita hisoblanadi. O'quvchilar sinfdoshlari oldida xato qilishdan cho'chimagan holda o'z fikrlarini erkin ifodalay oladilar, bu esa ularning ishonchini oshiradi.

### **Muammolar va xulosalar**

Biroq ko'plab maktablarda chet tili sinfxonalari zamonaviy texnologiyalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Bu holat o'qitish jarayonining an'anaviy usullar bilan cheklanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, chet tili o'qituvchilarining o'zlari ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha malakali va ijodkor (creative) bo'lishlari talab etiladi. Faqatgina rasm yoki video ko'rsatish bilan cheklanib qolmasdan, texnologiyalarning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy innovatsion texnologiyalar chet tillarini o'qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, dars samaradorligini ta'minlaydi va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Achilova, R. T. (2023). *The use of modern innovative technologies in foreign language teaching and its effectiveness*. Science and Innovation International Scientific Journal, 2(1), January. UIF-2022: 8.2. ISSN: 2181-3337. Scientists.uz.
2. Tsaturova, I. A. (2004). *Computer technologies in foreign language teaching*. Training manual for schools. Moscow: Higher School.
3. Harmer, J. (2015). *How to teach English*. Harlow: Pearson Education.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
5. Dudeney, G., Hockly, N., & Pegrum, M. (2013). *Digital literacies*. Harlow: Pearson.
6. Chapelle, C. A. (2001). *Computer applications in second language acquisition*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Godwin-Jones, R. (2018). Using mobile technology to develop language skills and cultural understanding. *Language Learning & Technology*, 22(3), 1–17.

## **GLOBAL TA'LIM VA MILLIY PEDAGOGIKA ASOSIDAGI ILMIIY TADQIQOT FAOLIYATI (RIVOJLANGAN OSIYO DAVLATLARI ETNOPELAGOGIK TAJRIBALARI(AKADEMIK EERKINLIK MISOLIDA))**

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li  
Urganch davlat pedagogika instituti,  
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasida professori v.b.,  
p.f.b.f.d.(PhD), mustaqil izlanuvchi  
([sh.xudayberganov.urdu@mail.ru](mailto:sh.xudayberganov.urdu@mail.ru), +99897 792 19 09)

**Annotatsiya.** Global ta'lim milliy pedagogikani, etnopedagogik tajribalarni mutlaq rad etolmaydi, chunki ularda har bir xalqning tarixiy tarbiyaviy tajribasi, shaxsning shakllanishiga samarali ta'sir etuvchi tarbiya usullari mujassamdir. Axborot texnologiya tizimlari qanchalik tezkor, ommaviy va samarali bo'lmasin, ular milliy pedagogik tajribalar bilan uyg'unlashganidagina ko'zlangan natija beradi. Shuning uchun global ta'limni milliy pedagogik tajribalardan ayriqcha qarash mumkin emas.

Ushbu maqolada global ta'lim va milliy pedagogikani tajribalari asosida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda akademik erkinlikni keng joriy qilishning mazmun mohiyati to'g'risida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** akademik erkinlik, moliyaviy mustaqillik, global ta'lim, moliyaviy mustaqillik turlari, strategiyalar, milliy pedagogika, akademik rivojlanish, tarixiy tajriba, akademik erkinlikni tatbiq etish usullari.

**Аннотация.** Глобальное образование не может полностью отрицать национальную педагогику и этнопедагогический опыт, поскольку в них воплощён исторический

воспитательный опыт каждого народа, а также методы воспитания, эффективно влияющие на формирование личности. Как бы ни были развиты, оперативны и массовы информационные технологии, они дают ожидаемый результат лишь при гармоничном сочетании с национальными педагогическими традициями. Поэтому рассматривать глобальное образование отдельно от национального педагогического опыта невозможно.

В данной статье излагаются идеи о сущности и содержании расширенного внедрения академической свободы в развитие научно-исследовательской деятельности в высших учебных заведениях на основе взаимодействия глобального образования и национальных педагогических традиций.

**Ключевые слова:** академическая свобода, финансовая независимость, глобальное образование, виды финансовой независимости, стратегии, национальная педагогика, академическое развитие, исторический опыт, методы реализации академической свободы.

**Annotation.** Global education cannot completely reject national pedagogy and ethnopedagogical practices, as they embody the historical educational experience of each nation and the methods of upbringing that effectively influence personality formation. No matter how advanced, rapid, or widespread information technologies may be, they yield the desired results only when harmoniously integrated with national pedagogical traditions. Therefore, it is impossible to view global education separately from national pedagogical experience.

This article presents reflections on the essence and content of expanding academic freedom in the development of research activities in higher education institutions, based on the interaction between global education and national pedagogical practices.

**Key words:** academic freedom, financial independence, global education, types of financial independence, strategies, national pedagogy, academic development, historical experience, methods of implementing academic freedom.

**Kirish.** Global ta'lim milliy pedagogikani, etnopedagogik tajribalarni mutlaq rad etolmaydi, chunki ularda har bir xalqning tarixiy tarbiyaviy tajribasi, shaxsning shakllanishiga samarali ta'sir etuvchi tarbiya usullari mujassamdir. Axborot texnologiya tizimlari qanchalik tezkor, ommaviy va samarali bo'lmasin, ular milliy pedagogik tajribalar bilan uyg'unlashganidagina ko'zlangan natija beradi. Shuning uchun global ta'limni milliy pedagogik tajribalardan ayriqcha qarash mumkin emas.

### **Olingan natijalar va ularning tahlili**

Global ta'lim muhitida rivojlangan Osiyo davlatlari etnopedagogik tajribalarini o'rganishni amalga oshirgan pedagogika fanlari doktori, professor T.I. Ismoilovning fikricha, Malayziya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Tailand, Singapur, Xitoy pedagogik tajribalarini, ayniqsa akademik mustaqillik prinsiplarini OTMlarga joriy etishga oid yondashuvlarni ikki guruhga klassifikatsiya qilib o'rganish mumkin. Birinchisi substantiv mustaqillik va ikkinchisi protsedur mustaqillik[5].

#### *Substantiv mustaqillikka:*

- akademik va kadrlar mustaqilligi;
- ta'lim dasturlari tuzilishi;
- tadqiqotlar o'tkazish siyosati;
- o'qishga qabul qilish qoidalari;
- akademik xodimlarni tayinlash;
- akademik darajalarni berish kabilar kiradi.

#### *Protsedur mustaqillikka esa:*

- moliyaviy mustaqillik;
- byudjet moliyalashtirilishi;
- moliyaviy menejment;
- noakademik xodimlarni tayinlash;
- tovar mollari va xizmatlarni sotib olish;
- kontraktlar tuzish kabilar kiradi.

Bizning fikrimizcha, tadqiqotchi amalga oshirgan yondashuv biz uchun ham muhim, u rivojlangan Osiyo davlatlari pedagogik tajribalarini umumlashtirishga va har birining differensial xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun asosiy diqqatimiz har bir davlatdagi milliy pedagogik jarayonlar va to'plangan etnopedagogik tajribalarga emas, bu mutlaq boshqa mavzu, balki akademik erkinlik bilan bog'liq etnopedagogik jarayonlarga qaratilishi zarur. Milliy pedagogik jarayonlar, etnopedagogik tajribalar OTMlarga joriy etilayotgan akademik erkinlikdan keng, demak, ikkinchisi birinchisining tarkibiy qismi, bir yo'nalishi sifatida qaralishi darkor. "Osiyo rivojlangan mamlakatlarida, deb yozadi T.I. Ismoilov, oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni o'tgan asr oxirlarda boshlandi[5]. 1995-yildagi Janubiy Koreya ta'lim islohoti rejasi, birinchi navbatda, xususiy oliy ta'lim muassasalariga keng mustaqillik berishga qaratilgan edi. Ayni paytda, davlat oliy o'quv yurtlarining mustaqilligi cheklanganicha qolayotgan sababli Janubiy Koreyaning oliy ta'lim tizimida yuqori darajadagi markazlashuv saqlanib qolmoqda. Boshqa bir mamlakat Malayziyada islohotlar natijasida 17 ta davlat OTMlariga qisman mustaqillik berildi. Biroq mamlakatda oliy ta'lim muassasalariga mustaqillik berish rejasi ishlab chiqilganiga qaramay, uni amalga oshirish darajasi past bo'lib qolmoqda. Indoneziya va Tailandda mustaqillik faqat eng yaxshi OTMlarning kichik qismiga berildi. Biroq bu mamlakatlarda islohotlarni amalga oshirish sur'ati beqaror bo'lib, kutilgan natijalarni bermayapti. O'tgan asrning oxirlarida Xitoy mahalliy hokimiyat organlariga oliy ta'lim tizimiga bir qator vakolat va vazifalarni topshirib, istiqbolli islohotlarni amalga oshira boshlandi, shuningdek, OTMlarni yuqori darajadagi mustaqillik bilan ta'minladi, ammo oliy ta'limga davlat monitoringi tizimini saqlab qoldi". Ko'rinib turibdiki, g'arbona ta'lim modelini joriy etish har doim ham kutilgan natijalarga olib kelavermaydi. Ilmiy asarlarda buning sabablari ochib berilmagan. Nima uchun Malayziya faqat 17 ta oliy o'quv yurtiga, tag'in qisman mustaqillik berdi? Axir unda 100 ga yaqin universitetlar mavjudki? Gap shundaki, Malayziyada malay tili bilan birga ingliz tili keng tarqalgan. Angliya ta'lim tizimi unga ta'sir etgan. Ma'lumki, 1992-yili Angliya hukumati ta'lim tizimida islohotlar o'tkazib, oliy ta'limni ommaviy qilishga kirishadi. Ammo ekspertlarning ta'kidlashicha, Angliya hukumatining ta'lim tizimidagi islohoti teskari natija berdi, yoshlar o'rtasida ta'limga bo'lgan qiziqish susayib ketadi. Malayziya hukumati o'zining etnopedagogik tajribalarini hisobga olmay, chet el, ingliz modeliga ergashadi. Aynan ushbu sabab, bizning fikrimizcha, Malayziya islohotlari kutilgan natijaga olib kelmaydi. Malayziyada Malayya universiteti, ILM-fan universiteti, Malayziya texnologik universitet, Malayziya milliy universiteti, Putra universiteti, Xalqaro islom universiteti, Utara Malayziya universiteti, Sabax Malayziya universiteti, Saravak Malayziya universiteti kabi OTMlar taniqlidir[2]. Ulardagi zamonaviy ta'lim jarayonlari Malayziya OTMlarini keyingi o'n yil ichida 156 o'rindan 59 o'ringa olib chiqdi. Mamlakat OTMlarida 136 mamlakatdan kelgan talabalar ta'lim oladi, YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra Malayziya OTMlari ommaviyligi, taniqliligi nuqtai nazardan dunyoda 11 o'rinda turadi. Unda ta'lim olishga to'lanadigan kontrakt pullari, masalan, Singapurdagidan deyarli ikki marta arzonidir. Aholisining 60% dan ziyodi ingliz tilida gapiradi, shu bois ingliz tili OTMlarda keng tarqalgan. Bu o'rinda bir paytlari Malayziyaning Buyuk Britaniya koloniyasi bo'lganini ham eslash zarur. Shu tufayli OTMlardagi magistratura va doktorantura ingliz tilida olib boriladi. Xususiy ta'lim tizimida olingan diplomlar Malayziya kvalifikatsiya agentligi tomondan ro'yxatga olinadi va shu sababli davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda OTMga qabul qilish uch marta 1) may-iyun, 2) noyabr- dekabr, 3) fevral-mart oylari amalga oshiriladi, ularda kirish imtihonlari topshirish nazarda tutilmagan. Ayrim OTMlar abituriyentni oddiy suhbat bilan talabalar safiga qabul qiladi. Malayziyada OTMlar davlat, xususiy va chet el bilim yurtlariga bo'linadi. Davlat OTMlari soni atigi 20 ta, qolganlari xususiy va chet davlatlarniki hisoblanadi. Mamlakatdagi OTMlar bo'yicha zarur normativ qarorlarni, tartiblarni nafaqat davlat akkreditatsiya agentligi, shuningdek, Malayziya xususiy va kollejlari va universitetlari Assotsiatsiyasi, Hamdo'stlik universitetlari Assotsiatsiyasi kabilar ham shakllantiradi. Universitetlardagi akademik erkinlik moliyaviy erkinlik bilan bog'lab qaraladi. Ularda ta'lim an'anaviy tarzda, ko'pincha tayyor materiallarni yodlash, muallim talabalarini so'zsiz bajarish, berilgan topshiriqlarni o'zlashtirish tarzida olib boriladi. Ma'ruzalar dialog tarzida emas, balki monolog tarzida olib boriladi, professor avtoritetiga

hurmat talab etiladi. Malayziyadagi oliy ta'lim uchun davlat organi bo'lgan Oliy ta'lim vazirligi mas'uldir. Shu bilan birga OTMLar ilmiy pedagogik faoliyatini, talabalar qabul qilish, ularning attestatsiyasini yo'lga qo'yish, qabul siyosatini amalga oshirish vakolatlariga ega Milliy kengashlar ham tashkil etilgan. T.I.Ismoilovning ta'kidlashicha, "Malayziya OTMLarining akademik mustaqilligi sezilarli darajada cheklangan deb aytish mumkin. Misol uchun, Malayziyadagi OTMLar hali o'qitish tilini mustaqil ravishda aniqlash imkoniyatiga ega emas. Ta'kidlash joizki, Malayziyaning "Oliy o'quv yurtlari to'g'risida"gi qonunining birinchi ilovasiga muvofiq mamlakatdagi OTMLar kafedralar tuzilishlari va lektorlik lavozimlarini ta'sis qilishlari mumkin, ular mustaqil ravishda o'quv dasturlari mazmunini aniqlash huquqiga ega emas. Oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish va o'quv dasturlari ham Oliy ta'lim vazirligining alohida huquqidir. Oliy ta'lim vazirligi bu huquqni quyi tashkilotga Malayziya malaka agentligiga topshirish orqali amalga oshiradi". Osiyo davlatlarida OTMLarga akademik erkinlik taqdim etishga o'tish hali ko'p vaqtlarga ega emas. Milliy pedagogikadagi tartiblar OTMLarda ham ustuvorlik qiladi. Akademik erkinlikni tatbiq etish Janubiy Koreyada 1992, Malayziyada 1994, Xitoyda bu jarayonlar 1998, Fillinida 2001, Yaponiyada 2004, Singapurda 2006, Indoneziyada 2007, Avstraliyada 2008 yilda boshlangan. Hindistonda esa bu jarayonlar, to'g'rirog'i, ilmiy izlanishlarga mustaqillik berish, ularni OTMLar faoliyati bilan bog'lash o'tgan asrning oxirlarida boshlangan bo'lib. Hanuz bir aniq dastur yoki platformaga ega emas. Unda xalq pedagogikasi, an'analari va diniy tasavvurlari aralashib keladi. Global ta'limda ro'y berayotgan o'zgarishlar Hindiston OTMLarini zamonaviy ilmiy izlanishlar, ayniqsa tibbiyot va internet sohalarida jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga olib kelgan. Mongoliya ta'lim tizimi ham keyingi yillarda global ta'limdagi jarayonlardan chekkada qolayotgani yo'q, ularda an'anaviy xalq pedagogik tajribalari ustuvor bo'lsa da, ilmiy texnik izlanishlarga katta e'tibor berilayotganini kuzatamiz. Janubiy Koreya ta'lim tizimidagi o'zgarishlar e'tiborni jalb etmoqda[3]. Mamlakatdagi 6 ta universitet jahonning 100 ta eng nufuzli talim dargohlari qatoriga kiradi. XIX asrlarda boshlangan ta'lim tizimidagi islohotlar asta sekin g'arbiy Yevropa modellariga moslasha boshlagan. Ammo Janubiy Koreya ta'lim tizimi o'zing etnopedagogik an'alaridan voz kechmagan, balki, aksincha u modernizatsiya jarayonlarini tarixiy tarbiyaviy tajribalar negiziga qurgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, "Koreys jamiyatida Konfutsiy davridan boshlab an'anaviy ravishda o'qimishli shaxsga nisbatan chuqur ehtirom va hurmat tuyg'usi bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Shu bois Koreyada har bir inson shunday mavqega ega bo'lish istagida ulg'ayadi va yashaydi. Bundan tashqari, Janubiy Koreya Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi mustahkam oilaviy rishtalar va ierarxiya, mehnatsevarlik, tejamkorlik va o'qishga bo'lgan g'ayrat shijoat ulug'lanadigan va amalda bo'lgan konfutsiylik ta'limotiga asoslangan mamlakat ekanligi hech kimga sir emas. Koreys oilalarida "oliy ta'lim" va "hayotdagi muvaffaqiyat" tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Hech bir ota-ona o'z farzandining sifatli ta'lim, kelajakda nufuzli oliy o'quv yurtiga kirishi uchun kuch va mablag'ini ayamaydi. Koreya jamiyatidagi bu hodisa obrazli qilib aytganda "ta'lim talvasasi" deb atalib, milliy xususiyatlarning biriga aylangan. Bugun Janubiy Koreyada 440 dan ziyod oliy o'quv yurtlari mavjud, maktab bitiruvchilarining 70 % ga yaqini ana shu dargohlarga o'qishga qabul qilinadi. Bu jahondagi eng yuqori ko'rsatkich. Har yili bir millionga yaqin maktab bitiruvchilar (mamlakat aholisi 52 millionga yaqin) uchun bu juda katta imkoniyat. Universitetlardagi akademik erkinlik va ta'lim Bolonya ta'lim tizimiga mos keladi. Universitetlarda qat'iy amal qilinadigan o'quv dasturlari mavjud emas, talabalarning fanlarni tanlashi va ularga qatnashi:

- 1) umumiy ilmiy profil;
- 2) profilli fanlar;
- 3) erkin qatnashish tartiblariga qurilgan.

Talaba o'zning hayotiy maqsadi va rejasiga muvofiq darslarga qatnashni mo'ljallashadi, agar shunday reja bo'lmasa, tajribali muallim, professor uni shakllantirishga yordam beradi. Qiziqarli hol shundaki, 2022-yil sentabridan boshlab talabalarning darslarga erkin qatnashi va fanlar profillarini tanlashi maktablarning yuqori sinf o'quvchilariga ham sinov tarzida tatbiq etiladigan bo'ldi. Ikkinchi kursdan boshlab ikkinchi mutaxassislikda ham ta'lim olishi mumkin. Bu talabaga

erkin ta'lim olish, ta'limi doirasini yanada kengaytirish, agar birinchi tanlagan fani, ixtisosligi ma'qul kelmasa, ikkinchisini davom ettirish imkonni beradi. Fanlar (darslar) o'rtasidagi integratsiya talabaga bir profil doirasi bilan cheklanib qolmaslik imkonini beradi. Darslar ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lib, har bir ma'ruza amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanib, talabani o'zlashtirish darajasi aniqlanib boriladi[2].

Janubiy Koreya universitetlaridagi akademik erkinlik talabalar va o'qituvchilarni baholash tizimi mavjudligida namoyon bo'ladi. Talabalarni baholash oraliq nazorati, yakuniy nazorat natijalari, davomat, uy topshiriqlarini bajarishi, darslardagi faolligi kabilar universitet sahifasiga kiritiladi, ular bilan istagan talaba tanishib borishi, agar biror e'tirozi bo'lsa, bahosini o'zgartirish uchun universitet apellyatsiyasiga murojaat etishi mumkin. Darslardan keyin, imtihonlar tugagach talabalar o'qituvchilarni baholashi kerak. Aks holda ular qo'yilgan baholar sahifasini ochib yakuniy baholarini bilish, ko'rish imkoniga ega bo'lmaydilar. O'qituvchilar anonim tarzda o'ttizdan oshiq parametrlar asosida talabalar tomonidan baholanadi. Ikki hafta o'tgach baholar natijasi e'lon qilinadi. Universitet reytingi baland professor o'qituvchilarni saqlab qolishga, ularning baholarini obyektiv e'lon qilishga intiladi, bu tartib koreyslardagi tarixiy tarbiyaviy an'analarning uzviy qismidir. Muallimga chuqur hurmat, ehtirom nafaqat darslarning yuqori saviyada o'tilishiga, shuningdek, mavjud intellektual potensialdan samarali foydalanishga ham imkon beradi. Zamonaviy ta'limni tarixiy tarbiyaviy tajribalar bilan uyg'unlashtirish Janubiy Koreya OTMlariga o'zga xoslik baxsh etsada, ularda konservativlik ham borligini ko'rmaslik mumkin emas. Professor avtoriteti ta'lim tizimida yetakchi o'rinda turadi, talaba uning ushbu avtoritetiga qarshi turolmaydi, uning baholarga kamdan kam hollarda e'tiroz bildiradi. Ta'limdagi ushbu avtokratizm akademik erkinlik tushunchasini ham nisbiy voqelikka aylantiradi, natijada dars jarayonlarida monolog usuli ustuvorlik qiladi. To'g'ri, dars jarayonlarida talabalar o'zini erkin tutishi, mashg'ulotlarga erkin munosabat bildirishi, ma'lum bir darslarni o'z qiziqishlariga muvofiq o'zgartirishi mumkin, biroq bular ichki avtokratik boshqarishga hech qanday ta'sir etmaydi. Darslarni o'zgartirish yoki ularga qatnash, qatnamaslik talaba ixtiyorida emas, ular belgilangan darslarga qatnashi shart va universitet ma'muriyati, o'quv ta'lim bo'limi tomondan o'rnatilgan fanlar bo'yicha imtihonlar va nazoratlar topshirishlari shartdir. O'qituvchi professorlar ilmiy izlanishlarida mustaqildir, ularga universitet ma'muriyati yoki Oliy ta'lim vazirligi tazyiq o'tkazmaydi. Ular boshqa davlatlardagi filiallariga, OTMlarga erkin borib kelish, ma'ruzalar o'qish, xalqaro grantlar va konferensiyalarda ishtirok etishlar mumkin, faqat bu faoliyat turlari haqida ular o'z ma'muriyatini ogohlantirib qo'ysalar yetarli. Janubiy Koreya universitetlarining pedagogik va ilmiy faoliyati har yili o'lchanib boriladi, ularning xalqaro reytingi baland bo'lishi uchun barcha talabalar, ma'muriyat, professor va boshqa xodimlar jon jahdi bilan tirishadi. Yuqori xalqaro reyting universitetga keltiradigan yuqori daromad hamdir. Moliyaviy erkinlik o'qituvchi professorlar va talabalarni moddiy rag'batlantirish, yangi eksperimentlar o'tkazish, xalqaro ijodiy aloqalar o'rnatish imkonini bergani uchun ma'muriyat ta'lim tizimiga ko'proq talabalarni jalb etish yo'llarini qidiradi[1].

Yaponiyaning ilg'or davlatlar qatoridan joy olgani unda ilmiy texnik rivojlanishga, ta'lim-tarbiyaga, kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgani tufaylidir. Yaponiya universitetlari chet davlatlarda yaratilgan ilmiy texnik kashfiyotlarni o'zlashtirish va o'ziga moslashtirish ketidan emas, balki o'zlari ilmiy texnologik kashfiyotlar markaziga aylanishga harakat qiladi. Professor va talabalarining ijodiy erkinligi yangi yangi texnologiyalarni yaratishga qaratilgan. OTM lar ichida Tokio universiteti, Kiot universiteti, Osak universiteti, Toxoku universiteti, Nagoyya universiteti, Tokio texnologik universiteti, Xokkaydo universiteti, Kyusyu universiteti kabilar mashhurlaridir. Ular xalqaro reytingda yuqori o'rinlarni egallashadi. Yaponiyada bolalar tarbiyasi va ta'limiga juda katta e'tibor berishadi. Ularni yoshligidan tirishqoqlik bilan bilim olishga o'rgatishadi, hatto bu o'rinda ularni tayyor sxemalar, tartiblar va normalarni yodlashga majbur etishadi. Bunday majburan yodlatish usuli bolani ilmiy izlanishga, bilim olishdagi mashaqqatlarga chidamli qiladi, deb bilishadi.

Yaponiyada universitetlar milliy, davlat va xususiy ko'rinishlarga bo'linadi. Milliy universitetlar soni 90 ta, davlat universitetlari soni 100, xususiy universitetlar esa 600 ta.

Talabalarning 75% xususiy universitetlarda ta'lim olishadi. Yaponiyada imperator universitetlari ham mavjud, ularning 7 tasi Yaponiyaning o'zida, qolgan ikkitasi esa Janubiy Koreya va Xitoydadir. Imperator universitetlari Yaponiya OTMlari ichida eng e'tiborlisi va yuqori reytinglisi hisoblanadi. Yaponiyada akademik erkinlik haqida o'tgan asrning o'rtalaridayoq fikr bildira boshlashgan. Universitetlarda ilmiy izlanishlar imperator yoki hukumat buyurtmalari, keyinchalik xususiy kompaniyalar bilan o'rnatilgan integratsion aloqalar natijasida shakllana boshlagan. Akademik erkinlik professorlarga buyurtmalarga muvofiq keladigan mavzularda ma'ruzalar o'qish imkonini bergan, bu ma'ruzalar dekanatlar tomonidan nazorat qilingan. Yaponiya OTMlarda tarixiy axloqiy an'analarga rioya etish, odob axloq masalalariga katta e'tibor berishadi. Talabalar darslarga qatnashmasada, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshirsa kursdan-kursga o'tishi mumkin. Magistrning ilmiy ishlari professorlar tomonidan qattiq nazorat qilinadi, plagiatga yo'l qo'yilmaydi. Akademik erkinlik professor bilan talaba o'rtasidagi do'stona munosabatlarda emas, balki ilmiy izlanishlarda bir-birini to'ldirishdadir. Buni erkinlik deyish qiyin, biroq ilmiy-izlanish, predmetlarni o'zlashtirish har ikki tomonga ham mas'ullik yuklaydi, agar professor o'z kasbi etikasidan kelib chiqib talabcha bo'lsa, talabani qayta qayta qatnashga majbur etsa, bu oddiy hol hisoblanadi. Agar talaba magistrlik dissertatsiyasini talablarga muvofiq to'la bajarmasa, u kursda qoldiriladi, ta'lim pullarini qaytadan to'laydi. Yaponiya universitetlari professorlarini juda ardoqlaydi, ularning mustaqil izlanishlari uchun zarur barcha sharoitlarni yaratib beradi. Kasb-korlar ichida muallimlik eng yuqori, obro'li va jamiyat e'zozlaydigan faoliyat turi hisoblanadi, shuning uchun ham ular juda yuqori maosh oladilar. Yapon xalqining etnopedagogik tajribalarga itoat etishi, farzandlar tarbiyasi, ularni hayotga tayyorlash, bilimli qilish axloqiy qadriyatlar orqali ham o'lchanadi.

**Xulosa.** Rivojlangan Osiyo davlatlaridagi etnotajribalar, ulardagi akademik va moliyaviy erkinlik universitetlarning samarali ishlashiga yordam berayotganini tasdiqlaydi. Davlat ularning mustaqilligini nafaqat kafolatlaydi, shu bilan birga, ularning bosh buyurtmachisi funksiyasini ham bajaradi. Demak, davlat ta'lim tizimiga buyurtmalari orqali ta'sir etadi va boshqaradi, akademik erkinlik esa universitetlarga erkin tarzda darslarni tashkil etish, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi. Bu esa universitet jamoasiga katta mas'uliyat yuklaydi, OTMning mavqeyi, kelajagi, jamiyatdagi o'rni, kadrlarning hayotdan o'z o'rini topib ketishi, ilmiy ishlanmalari bilan hudud taraqqiyotga xizmat qilishi uning zimmasidadir. Etnopedagogik tajribalarni davom ettirish, ularni zamonaviy ta'lim jarayonlari bilan uyg'unlashtirish va shu tariqa jamiyat manfaatlariga xizmat qilish mustaqil OTMlarning xususiyatlariga va funksiyalariga aylanadi. Shu bilan birga chet el tajribalarida insonning ma'naviy-ruhiy, axloqiy xususiyatlari har doim ham hisobga olinaverilmasligini, bu hol ta'lim va tarbiya jarayonlarini murakkablashtirayotganini unutmaslik kerak. Ta'limni sun'iy tarzda murakkablashtirish, tabiat va hayotdan, insonning ma'naviy-ruhiy va axloqiy ehtiyojlaridan uzoqlashtirish inson shakllanishiga salbiy ta'sir etishini chet ellik pedagoglar, olimlar xam tasdiqlashadi. Demak, ta'limni modernizatsiyalash shiori ostida etnopedagogik tajribalarni siqib chiqarish shaxs tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini unutib bo'lmaydi[2].

#### **Adabiyotlar:**

1. *Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р.* Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. – Б. 53–56.
2. Edwards R., Usher R. Globalization and Pedagogy Space Place and Identity. N.Y., 1999.P.101-107;
3. *Фуллер С.* Социология интеллектуальной жизни: карьера ума внутри и вне академии. – Москва: Изд. Дом “Дело” РАНХ иГС, 2018.р.300, Рр.-78-81.
4. *Камаев А.А.* Дистанционное образование как фактор формирования единого мирового образовательного пространства. Автореф. дисс. канд. пед. наук, Рязань: РГУ, 2003. Рр.6-8
5. Исмоилов Т.И. Олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш жараёнларига академик мустақиллик принципларини жорий этиш истикболлари

## MUNDARIJA:

### 1-sho'ba. Buyuk ipak yo'li kontekstida ta'lim va tarbiya an'analari: zamonaviy boshlang'ich ta'limga

#### integratsiya imkoniyatlari

Кодиров Кахрамон Рахмонович.	Математическая модель процесса фильтрации подземных вод в трехслойном пласте, ограниченном водоупорами сверху и снизу	5
Qoraboyev Usmon Xosilovich Karimova Nilufar	O'zbekistonda festivallarning ravnaq topishi	12
Xayitov Akmal Xolboyevich	Ta'lim samaradorligini ta'minlashda muammo va yechimlar	17
Sattorov Eldor Bobir o'g'li	"Суй шу" солномасида Суғд ва Фарғона тарихини ёритилиши	21
Absattorov Baxtiyor Mamarsulovich	Sun'iy intellektni ta'lim tizimida samarali qo'llashning ijtimoiy-madaniy asoslari	25
Abdullayev Obid	Elastiklik nazariyasi chegaraviy masalalarida tadbiq etiladigan chekli elementlar metodining asosiy formulalari	28
Yunusova Gulruh Axmadjon qizi	Inson ruhiy salomatligida ekologiyaning o'rni	33
Nigora.Shomurotova	Badiiy matnda umumbashariy konseptlar va tipologik o'xshashliklar	37
Mamatqulova Xolida Axtamovna	Inson kapitalining barqaror rivojlanishga ta'siri	39
Ashurov Abror Uralovich	Akt rivojlanishi sharoitida sadoqatning ijtimoiy kapital sifatida namoyon bo'lishi: media makon, ishonch va axloqiy mas'uliyat dialektikasi	43
To'laboyeva Shoir Abdulkamidovna	Sun'iy intellekt axloqi ijtimoiy munosabatlar va milliy qadriyatlar muvozanatini ta'minlovchi mezon	46
Ro'zimurodov Uralboy Madatovich	Frazeologik birliklarning grammatik shakli va funksional talqini	50
Lutfilloyeva Faxriniso Maxmudovna	Ta'lim sifatining evolyutsiyasi	53
Xayitov Akmal Xolboyevich	Ekologik ongni shakllantirishda davlat siyosatining roli	58
Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi	Термоэлектрические генераторы как источник экологически чистой электрической энергии	62
Юлдашев Лазиз Ташпулатович		
Абдугаппарова Назокат Сайфулла кизи		
Равшанова Олима Исомиддиновна	Энергосберегающие технологии в нефтехимической промышленности	63
Nodirxon Saydivaliyev Nuriddinxon o'gli	Yashil iqtisodiyot va ekologik ong: O'zbekiston tajribasi va umumjahon yondashuvlar tahlili	66
Mahmudova Xurshida Botir qizi	Yoshlarda ekologik ongni shakllantirish va iqtisodiy islohotlar	69
Smaylova Zarafshan Muratbay qizi	O'zbekistonda qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash	71
Axtamov Jahongir Ummat o'g'li	Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsiyalar va iqtisodiy barqarorlik	74
Sofia Naaz,	Green economy and ecological consciousness development: economic mechanisms and practical approaches in uzbekistan	77
Sobirjonov Muhammadsharif Sohibjon o'g'li	Ekologik monitoring tizimlarida signal va tasvirlarni qayta ishlash texnologiyalarining ahamiyati	81
Do'stov Bahodir Tashpo'datovich	Yashil iqtisodiyotda ekologik ong va madaniyatning o'rni	85
Sobirjonov Muhammadsharif Sohibjon o'g'li	Havoni ifloslantirish epidemiologiyasida data mining va mashinani o'rganish: tizimli ko'rib chiqish	90
Babakulova Iroda Uzokboyevna	O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va ekologik ongni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari	96
Seytnazarov Saulat, Kamalov Murat	Ekologik muammolarni hal etishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni	99
Z.S.Turdaliyev	Kichik sabzavotchilik traktorining iqtisodiy ko'rsatkichlari	102
R.Xudaykuliyeu	Daraxt va buta ko'chatlarini kavlab oladigan mashina va agregatlarning turlari	104
N.Parmanov		
Achilov Jamoliddin Shakirovich	G'alla o'rish – tashish tizimidagi texnikalardan samarali foydalanishga doir ilmiy-amaliy, metodik masalalar	107

Saydullayeva Zilola Rizamat qizi	Axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida axborot oqimining kuchayishi	257
Isayev Nurbek Faxriddin o'g'li	Konussimon qobiqlar dinamikasi bo'yicha ilmiy manbalar tahlili va nazariy asoslari	259
Butayev Ruslan Buriboyevich	Kompozit ko'p qatlamli plastinkalar	261
Yusupova Feruza	An'anaviy ta'limdan innovatsion ta'lim modellari o'tish jarayoni	262
Xalilova Muslima Turobovna	Matematika ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarning psixologik asoslari	264
Bahromova Nasiba Abduvaliyevna	Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida klassik edagogik qarashlarning zamonaviy, innovatsion ondashuvlari va raqamli texnologiyalarning o'rni	266
Butayev Ruslan Buriboyevich	Kompozit materiallarning qovushqoq-elastic xususiyatlarini modellashtirish zarurati	268
Rajabova Shoiri Muzaffar qizi	Raqamli o'qitish jarayonida sun'iy intellektning o'rni va istiqbollari	270
Nurmatov Kamol Djurakulovich	Ta'lim tizimida raqamli innovatsion texnologiyalarning qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari, sun'iy intellekt yordamida ularni bartaraf qilish usullari	273
Tohirova Xadichabonu Erkin Qizi	Kasb-hunar ta'limida innovatsion texnologiyalar va gamifikatsiya yondashuvlari	276
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	Ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish omillari	279
Исмоилова Феруза Кубаймуродовна	Развитие интеграционных процессов на рынке образовательных услуг	282
Музаффаров Фаррухбек Одилжон ўғли	Мева-сабзавот махсулотларини қайта ишлаш тармоқ корхоналарида фаолиятни ташкил этишнинг назарий-услубий асослари	286
Orazimbetov Shingisbek Jangabayev Daniyar Jaras uli	Modern educational technologies for teaching a foreign language	290
Ro'zmetova Sevara Oktamboevna	Sharq kimyo maktablari merosining zamonaviy innovatsion kimyo ta'limi va steam yondashuvidagi aks etishi	293
Абдулхакимова Новбахор Тойиржановна	Использование компьютерных технологий в профессионально-ориентированном обучении русскому языку как иностранному студентов технических направлений	296
Narziyev Furqat Fayzullo o'g'li	Qumqo'rg'on tumanining o'quv atlasini ishlab chiqishda gat texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	301
Mavlonova Dilnoza Olimovna Suleymanov Timur	Using modern digital tools in teaching english	303
Shomurodova Sarvinov Dilmurod qizi	Ta'lim tizimidagi raqamli innovatsiyalar va iqtisodiy samaradorlik	306
Zulhumor Dehqonova	Kelajakda dizayner va muhandislar faoliyatida sun'iy intellektning o'rni va imkoniyatlari	308
Raxmonqulov Raimqul Mansurov Sherzod To'ychiboyevich Abdug'aniyeva Yulduzoy Shaxabidinovna	Texnologik jarayonlarni vizual tahlil qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish	312
Mansurov Sherzod To'Ychiboyevich Jonqobilov Jaxongir Tirkashevich	Excel asosida test savollarini qayta ishlash va avtomatik variantlar yaratish dasturi	315
Erkinova Sayyora Ulug'Bek qizi	Sun'iy intellekt va raqamli platformalarasosida til o'rgatishning innovatsion yondashuvlari	318
Tilavoldiyeva Dilrabo	Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati	319
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li	Global ta'lim va milliy pedagogika asosidagi ilmiy tadqiqot faoliyati (rivojlangan osiyo davlatlari etnopedagogik tajribalari(akademik eerkinlik misolida)	321